

O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA BIR SEMALI VA KO'P SEMALI BIRLIKLARNING LINGVISTIK TAHLILI

Hamroyeva Maftuna

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7880434>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek tilshunosligidagi bir semali va ko'p semali birliklar haqida umumiy ma'lumot va serqirra ijodkor O'tkir Hoshimov asarlaridagi bir semali va ko'p semali leksemalarning badiiyligida ifodalanishi hamda lingvistik jihatdan tahlili nazariy qarashlar asosida keltirilgan.

Kalit so'zlar. Sema, bir semali, ko'p semali, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asari.

LINGUISTIC ANALYSIS OF SINGLE-SEMAL AND MULTI-SEMAL UNITS IN O'TKIR HASHIMOV'S WORKS

Abstract. In this article, general information about monosyllabic and polysyllabic units in Uzbek linguistics and artistic expression and linguistic analysis of monosyllabic and polysyllabic lexemes in the works of the prolific artist O'tkir Hoshimov are presented based on theoretical views.

Key words. Sema, one semali, many semali, the work "Inscriptions on the border of the notebook".

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОДНОСЕМЕННЫХ И МНОГОСЕМЕННЫХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УТКИРА ХАШИМОВА

Аннотация. В данной статье представлены общие сведения об однозначных и многозначных единицах в узбекском языкознании и художественной выразительности и лингвистический анализ однозначных и многозначных лексем в произведениях плодовитого художника О'ткира Хошимова на основе теоретические взгляды.

Ключевые слова. Сема, одна семали, много семали, работа «Надписи на кайме тетради».

Tilshunoslikda har qanday butunlik qismlarga bo'linganligi yoki qismlardan tashkil topganligi kabi leksemaning mazmuniy tomoni – sememasi o'ziga xos elementlardan-semalardan tashkil topadi. Sema termini grek tilidan o'zlashgan bo'lib, "belgi", "ramz", "ishora" degan ma'nolarni bildiradi. Sememani semalarga ajratish amaliy ahamiyatga ega. Ma'nosi yaqin, zid ma'noli yoki ma'nodosh leksemalarni farqlash va izohlashda semalarga tayaniladi va bu birliklar matn tarkibida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bir semali va ko'p semali birliklarni ko'rib chiqamiz. Formal tilshunoslikda bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar farqlanadi va turli xil ma'nolarni ifodalaydi, nazariy leksikologiyada esa bir semali va ko'p semali leksemalar ajratiladi.

Leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir sememali leksema deyiladi. Masalan, ro'mol leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli u bir semali leksema hisoblanadi. Ro'mol so'zi orqali boshqa bir ma'nolarni ifodalay olmaymiz. Bundan tashqari daftar, ruchka, stol, stul, shkaf so'zlari ham bir semalidir. Ularni ko'chma ma'noda ishlata olmaymiz.

Leksema ko'p sememali bo'lsa, har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etadi, har bir sememaning nutqiy voqealanishdagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasi asosida bog'lanuvchi birliklar paradigmasi turlicha bo'ladi. Masalan, bel leksemasi birdan ortiq paradigmatic va sintaktik qurshovda kela oladi. Birinchi sememasi ta'na a'zosi ma'nosida keladi.

M: *Munisa beli og'riganligi sababli, ertalabgacha uxlo olmay chiqdi*, ikkinchi sememasi asbob ma'nosida. *Mo'tabar ertalabdan turib, bel bilan yerlarni yumshatdi*. Leksemaning sememalik miqdori, paradikmadik, ma'nodoshlik va sintagmatik munosabatlari asosida aniqlanadi. Yana qulog'iga quymoq iborasi ham ko'p semaliga misol bo'la oladi. O'z ma'nosida biror narsani qulog'iga quymoq. Masalan, *Munisaning qulog'i og'riganligi sababli onasi qulog'iga dori quydi*. Ko'chma ma'noda biror narsani uqtirmoq ma'nosini ifodalaydi. Masalan, *Ustoz she'rni yod olishni Risolatning qulog'iga quydi*.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi O'tkir Hoshimov, asarlarida badiiylikni oshirish, ta'sirchanligini yuksaltirish maqsadida bir semali, ko'p semali so'zlardan mahorat bilan foydalangan. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida "Darvinga e'tiroz" sarlavhasi bilan boshlanadigan satrlarda *Oyog'i yerdan uzilmaganlar odam bo'lib qolgan. Oyog'i yerdan uzilganlar esa maymun bo'lib daraxtga chiqib ketgan...Bu jarayon hamon davom etmoqda...* (5-bet) degan misralar bor. **Chiqmoq** fe'li ko'p semali. Masalan, *daraxtga chiqmoq, uydan chiqmoq, ko'chaga chiqmoq, aylanishga chiqmoq* kabi. Bu birikmalarda chiqmoq fe'lining bir nechta ko'chma ma'nolarda ishlatilishini ko'ramiz.

"Tabiat gultoj" sarlavhasi bilan boshlanadigan satrlarda, *Kiyik och qolmaslik uchun ko'kat yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Sher och qolmaslik uchun kiyikni yeydi. Ammo bir-birini o'ldirmaydi. Odam ko'katni ham yeydi. Kiyikni ham yeydi. Ko'ngil xushi uchun sherni ham o'ldiradi....Keyin...urush qilib, bir-birining boshini yeydi...* (6-bet) misralariga duch kelamiz. Kiyikning o't, sherning kiyik yeyishi o'z ma'nosida kelgan hamda bir semali, odam bir-birining boshini yeyishi esa ko'p semali. *Yigirmanchi asrda ikki daf'a jahon urushi ro'y berdi va millionlab insonlarning yostig'i quridi*. (8-bet) *Yostig'i qurimoq* iborasi ko'p semali, o'z ma'nosida yostiqning quriganligini anglatadi, ko'chma ma'noda yostig'i qurimoq, butun oilasi bilan o'ldirilib yuborildi ma'nosini ifodalaydi.

Azbaroyi pora olgani uchun emas, bir yoqadan bosh chiqarishni bilmagani uchun. Azbaroyi tekinox'rligi uchun emas, noahilligi uchun! (12-bet) Bunda bir yoqadan bosh chiqarmoq iborasi o'z va ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. O'z ma'nosida bitta yoqadan boshni chiqarmoqni anglatadi, ko'chma ma'noda hamjihat bo'lmoq, yakdil bo'lmoq ma'nosini ifodalaydi.

Odam o'z farzandlarining yil sayin o'sib, kamol sari ketayotganini biladi-yu, o'z ota-onasining yil sayin cho'kib, zavol sari ketayotganini bilmaydi... (12-bet) Bu satrlardagi cho'kib fe'lini tahlil qilamiz. Bu fe'l ko'p semali. *Suvga cho'kmoq* o'z ma'nosida. Ota-onasining yil sayin cho'kib, birikmasi ko'chma ma'noda. Ya'ni bu yerda ota-onasining yil sayin qarib borayotganligi ma'nosi ifodalangan.

Odam ezgu amallardan manfaat topolmagani uchun ulardan voz kechsa va qilish mumkin bo'lmagan ishlarni qilsa, noinsof bo'ladi. (16bet) **Ezgu so'zi** bir semalidir. Ezguni amal, so'z, fikrga bog'lab, ezgu amal, ezgu so'z, ezgu fikr kabi birikmalar hosil qilishimiz mumkin. *Ota-onasi tirikligida ikki og'iz shirin so'zni tekinga aytmaydi-da, ular o'lganidan keyin ming-ming pul sarflab, o'sha so'zlarni qabrtoshga yozdirib qo'yadi...* (16-bet) **Shirin so'z** ko'p semali so'zga misol bo'la oladi. *Shirin ovqat o'z ma'nosida, shirin so'z ko'chma ma'noda qo'llanilgan. Eng toza tuyg'u nima? Birinchi maoshingizni keltirib berib, otangizning duosini olganingizmi?* (27-bet) Bunda **toza tuyg'u** ko'p semali. Toza suv, toza ob-havo o'z ma'nosida. Toza tuyg'u ko'chma ma'noda qo'llanilgan. *Aksiga olib, yomg'ir shivalay boshladi. Avvaliga tomchilab turdi-da, keyin shiddat bilan yog'ib ketdi*. (28-bet). Bunda **yomg'ir shivaladi** bir semali. Shivalamoqni boshqa

so'zlar bilan qo'llay olmaymiz. Shivalamoq faqat yomg'ir so'zi bilan ma'no jihatdan mos. Masalan, suv shivaladi desak, ular ma'no-mazmun jihatidan mos emas, bog'lanishda g'alizlik bor. Lekin yomg'ir shivalishi ma'no-mazmun jihatidan mos. *Bozorda hayot qaynaydi... Mozor esa marhumlar makoni...* (75-bet) Bu jumalalarda **qaynaydi** ko'p semali so'zdir. *Bozorda hayot qaynaydi...* Ko'chma ma'noda qo'llangan, ya'ni bozorda odamlar gavjum bo'lishi, hayotning davomiyligi ma'nosini ifodalaydi. O'z ma'nosida biror narsaning qaynaganligini anglatadi. Masalan, suv qaynadi, ovqat qaynadi. *Bugun bayram. Ko'chalar gavjum. Sho'x-sho'x kuylar yangraydi.* (76-bet) Bu matndagi **yangraydi** fe'li bir semali hisoblanadi. Yangraydi fe'lini boshqa so'zlar bilan qo'llay olmaymiz. Boshqa so'zlar bilan qo'llansa matnda g'alizlikka sabab bo'ladi. *Unisini ham, bunisi ham bevaqt ko'z yumdi..*

....*Ajab! Bir onaning qorniga qanday sig'di ekan, aka-ukalar?!*(131-bet) **Ko'z yumdi** ko'p semali so'zdir. O'z ma'nosida ko'zni yummoq ma'nosini ifodalaydi. Ko'chma ma'noda bevaqt olamdan ko'z yumdi, ya'ni vafot etdi ma'nosini ifodalayapdi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bir semali va ko'p semali birliklar orqali berilayotgan ma'no badiiylik uchun xizmat qiladi. Ular nutqning ifodaliligi va boyligini oshiradi hamda nutqni bezovchi vosita sanaladi. Tilimizni bir semali va ko'p semali so'zlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu birliklar asarning obrazli, jozibador va ta'sirchanligi uchun xizmat qiladi va o'qishligini ta'minlaydi. Bu jihatlariga "Daftar hoshiyasigai bitiklar" asari tahlilida ham, guvoh bo'lamiz. Gap tahlillarida bir semali va ko'p semali so'zlarning matn mazmunini ochishga xizmat qilgani va emotsionalikni ta'minlaganini ko'rishimiz mumkin.

REFERENCES

1. R.Sayfullayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent-2020.
2. B.Mengliyev "Hozirgi o'zbek tili" Toshkent-2018.
3. O'tkir Hoshimov "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asari Toshkent-2013
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)